XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2023 - yil 4 - yanvar VI-69-1-8-111-K/23 Denov tuman hokimligi

Denov tumanidagi qabristonlar nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 10-oktabrdagi 01-05/225-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 10-noyabrdagi 18-01/343-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2022-yil 16-noyabrdagi 18-10172-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Denov tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman komissiyasining 2022-yil 10-oktabrdagi 01-05/225-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 10-noyabrdagi 18-01/343-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2022-yil 16-noyabrdagi 18-10172-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasi ma’qullansin.

2. Tumandagi **qabristonlar** nomlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo‘limi (U.Aliqulov), tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) va davlat xizmatlari markazi (O.Xolmirzayev) birgalikda **qabristonlarni** ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish

yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) hududlardagi **qabristonlar** nomlarini yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tumandagi **qabristonlar** ro‘yxati Kengash qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

6. Ushbu qarorni tuman hokimligi Axborot xizmati (F.To‘rayeva) tuman hokimligining ijtimoiy saytida va “Chag‘oniyon” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Ch.Murodov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi o'rinbosari **A.Narzullayev**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023 yil 4 yanvardagi
VI-69-1-8-111-K/23-son
qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza berilgan Denov tumanidagi mavjud qabristonlar

ro‘yxati

T.P	Geogtafik obyektni turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
Qabristonlar					
1	Qabriston	Navbahor MFY	Nomsiz	1. Qo‘shchinor	1. Qo‘shchinor qabriston hududida qadimiy Chinor daraxti borligi uchun shu nomga tashlif berildi.
2	Qabriston	Chashmasor MFY	Nomsiz	1. Xonaqoh	1. Xonaqoh-katta bino yoki uning asosiy xonasi: diniy me’moriy inshootlardagi (masjid, madrasa va boshqalardagi) katta xona (zal), ziyoratchilar uchun qurilgan jamoatxonalar, hujralar ham shunday ataladi; sufiylar mashg‘ulotlarini o‘tkazishga mo‘ljallangan katta xona va uning atrofiga qurilgan hujralardan iborat me’moriy maskan; mahalla, qishloq masjidlarining tomi (yopmasi) gumbazli yoki tekis bo‘lgan qishki qismi. O‘rta asrlarda xonaqoh odam, borliq, Tangri munosabatlariga oid murshid va muridlar suhbatlari o‘tkaziladigan maskan bo‘lgan.

3	Qabriston	Do‘stlik MFY	Nomsiz	1.So‘limgoh	1. So‘limgoh – Mahalla oqsoqollari va faollarining taklifi inobotga olinib shu nomga tashlif berildi.